



**Xayriya buyumlaridan ham
bojxona to'lovi olinadimi?**

4-betda o'qing



**Mulk huquqi muddatsizdir,
ammo u qonuniy himoyaga
muhtoj**

5-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
17-YANVAR
SESHANBA

№ 02 (1362)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

@adolat_nashrlari



"ADOLAT"

**"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!**



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanaliga a'zo
bo'ling!




JARAYON



DAVLAT XIZMATLARI MARKAZLARINING

**barcha resurslari fuqarolarga yordam
rejimiga o'tkazildi**



Yuridik ta'lim va amaliyot

PREZIDENTIMIZNING Oliy Majlisga va xalqimizga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasida 2023-yilga "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nom berilishi bugungi kunda yuridik ta'limga ham zamonaviy talablar asosida alohida e'tibor berish va samarali ta'lim olib borishni taqozo etadi...

2-betda o'qing

So'nggi kunlarda yurtimizda kuzatilayotgan anomal sovuq va uning oqibatlarini yengillatish uchun respublikamizdagi barcha davlat xizmatlari markazlarida fuqarolarning og'irini imkon qadar yengillatish maqsadida qator qulayliklar joriy etildi.

Birinchisi, fuqarolar biror ish bilan DXM yaqinida tashqarida turib qolsalar – hatto DXMlarda ishi bo'lmasa ham – ichkariga kirib isinib olishlari mumkin: ularga bir piyola issiq choy, shinam kutish zallari hozir.

Ikkinchisi, barcha DXMlarga tashrif buyurayotgan (Toshkent shahri mustasno) pensioner, nogiron, yosh bolali fuqarolarni xizmat avtomashinasi Damaslarda zarur hollarda avtobuslar bekati, shahar yoki tuman markazi, uyiga qadar yetkazib qo'yish to'g'risida rahbariyat tomonidan topshiriq berildi.

Uchinchisi, barcha DXMlar energiya-tejamkor rejimda ishlamoqda: kunduz kuni chiroqlar yoqilmaydi, faqat kompyuter va fuqarolarga ma'lumot beruvchi tablolar ishlaydi.

Shuningdek, davlat xizmatlarini ko'chaga chiqmay, uydan turib olish imkoniyatlari ham yana bir bor eslatiladi, my.gov.uz, license.gov.uz hamda new.birdarcha.uz portallari orqali uydan chiqmagan holda elektron davlat xizmatlaridan foydalaning.

Masalan, my.gov.uz orqali:

- ✓ sanatoriylarda davolanish yo'llanmasini olish;
- ✓ masofadan turib bolani bog'chaga navbatga qo'yish va navbatni tekshirish;
- ✓ nikohdan o'tishga onlayn ariza topshirish mumkin.

"Litsenziya" (<http://license.gov.uz/>) axborot tizimi orqali litsenziyalash va ruxsat berish hujjatlari uchun ariza berish, kabinet orqali tashkilotga tegishli ma'lumotlarni olish, litsenziyalari reyestridan ma'lumotlar izlash imkoniyatlari mavjud.

Biznesni new.birdarcha.uz orqali uydan chiqmagan holda oson va tez boshlash imkoniyati yaratilgan.

Davlat xizmatlari markazlari fuqarolarga imkon qadar mehr va iliqlik ulashishga harakat qilmoqda.

2 MUTAXASSIS MINBARI

2023-YIL – INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

PREZIDENTIMIZNING Oliy Majlisga va xalqimizga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasida 2023-yilga "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nom berilishi ham bugungi kunda yuridik ta'limga ham zamonaviy talablar asosida alohida e'tibor berish va samarali ta'lim olib borishni taqozo etadi. Bundan anglashiladiki, ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkey yagona to'g'ri yo'lidir. Yuridik ta'lim sohasida ham boshlagan islohotlarimizni davom ettirish, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish zamon talabidir.

YURIDIK
TA'LIM
va amaliyot

Jumanazar XOLMO'MINOV,
Termiz davlat universiteti
yuridik fakultetining dekani,
yuridik fanlar doktori, professor

YURIDIK TA'LIMDA
KREDIT-MODUL TIZIMI

Yuridik ta'limga kredit-modul o'qitish tizimi joriy etilishi ham talabalar uchun yangilik bo'ldi. Bu tizim har bir o'quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o'quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.

Yuridik ta'limga mazkur o'qitish tizimi ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv amaliyoti, klinik o'quv amaliyotlar, kurs loyihasi (ishi), shuningdek, ta'lim oluvchilarning mustaqil mashg'ulotlari bo'yicha haftalik soat yuklamasi va ularning faoliyatini baholash mezonlarini aks ettiradi. Ta'lim oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilgan va ular baholanganidan so'ng kreditlarni to'plash mumkin bo'ldi.

Yuridik ta'limga kredit-modul o'qitish tizimi o'quv jarayonining bir necha bosqichlaridan iboratdir. Jumladan, bu jarayonlar auditoriya mashg'ulotlari – ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv (klinik) amaliyotidan iborat. Shuningdek, auditoriya-dan tashqari mashg'ulotlar – ilmiy kutubxonada ishlash, mustaqil ishlar, individual maslahatlar, klinik vazifalar, ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, ta'lim oluvchilarning ilmiy anjumanlarda qatnashishi, magistratura mutaxassisliklarida ilmiy faoliyat turlari va boshqalardan iborat bo'ldi.

Yuridik ta'limga interfaol metodlar – o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, goh noverbal, goh verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlarni qo'llashda o'zaro ta'sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir yoki turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmaydi va hamkorlik subyektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga (kashf etishga) ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarni yaratish funksiyalarini ham bajarishi mumkin.



KATTA HAYOTGA YO'LLANMA


Amaliyot – ta'limning butun bir qismi. Amaliyot, ayniqsa, talaba olgan nazariy bilimlarini mustahkamlab, o'zi tanlagan yo'nalishga kasb nuqtayi nazaridan qarab, mas'uliyatni his qilishda muhim ahamiyatga ega. Yuridik ta'limga amaliyotni bir necha xil ko'rinishda tashkil qilish mumkin. Muhimi, amaliyotning barcha bosqichlarida ham talabalar tomonidan kasbiy ko'nikmalarni egallashda uzluksizlik va izchillik ta'minlanishi shart!

HUQUQIY FANLARNI O'QITISHDA
INNOVATSIYA

"Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon ekanligi ta'kidlanadi. Endilikda, huquqiy fanlarni o'qitishga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish, ta'lim sifatini ta'minlashda xorijiy mamlakatlar tajribalaridan keng foydalanish zamon talabi bo'lib qolmoqda.

2020-yilda Prezident farmoni bilan Termiz davlat universitetida yuridik fakultet faoliyatini tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish va o'quv jarayonini kredit-modul tizimi, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, eng yangi axborot va o'quv-laboratoriya jihozlari keng joriy etish va foydalanish asosida tashkil etish belgilangan edi. Unga ko'ra, huquqiy fanlarni o'qitishda innovatsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda amaliyot bilan chambarchas bog'lash qat'iy belgilab berildi. Farmonga asosan nazariy tayyorgarlikning huquqni qo'llash amaliyoti bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashga qaratilgan ma'ruzalar, mahorat darslari va o'quv seminarlarini o'tkazish uchun vazirlik va idoralarning amaliyot xodimlarini jalb qilish orqali o'quv jarayonini samarali tashkil etish muhimligi belgilandi.

Zamonaviy yuridik ta'limga o'zaro muloqot va amaliyot bilan bog'lash pedagogik texnologiyaning asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak. Bunda yosh huquqshunosning "faolligi" muhimdir. Chunki reprodutiv huquqiy ta'limga talabalar faqat tayyor huquqiy bilimlarni egallashga o'rgatilgan, ular o'qituvchi ma'ruzada bergan bilimni seminar va amaliy mashg'ulotlarda qayta o'rganib, mustahkamlab borishgan.



Endi amaliyotning eng muhim jihatlariga to'xtalib o'tsak. Amaliyot o'tash muddati va hajmi ishchi o'quv reja, modul (fanlar) o'quv dasturlari, amaliyot o'tash dasturi bilan belgilanadi. Amaliyot o'taganlik uchun tegishli kreditlar ajratiladi. O'qituvchilarning amaliyotdagi o'quv yuklamasi ishchi-o'quv reja da ko'rsatilgan o'quv pedagogik soatlar (haftalar)dan va amaliyotni o'tash turidan kelib chiqib aniqlanadi. Qabul qiluvchi tashkilot amaliyotga yuborilgan talabalarga amaliyot rahbarini birlashtiradi.

Amaliy tajribaga asoslanib, yurist talabalarining amaliyotini uch turga bo'lish mumkin.

Tanishtiruv amaliyoti – bakalavriatning I-III kurs talabalari uchun ixtiyoriy amaliyot turi. Tanishtiruv amaliyoti talabalarining darsdan bo'sh vaqtlarida qabul qiluvchi tashkilot bilan kelishilgan holda o'taladi. Tanishtiruv amaliyoti yuzasidan amaliyot o'tash davomiylik ko'rsatilgan ma'lumotnoma taqdim qilinadi, ma'lumotnoma asosida kreditlar o'zlashtirilganligi hisobga olinadi.

Bitiruv malakaviy amaliyot – ta'limning yakunlovchi bosqichi hisoblanadigan va bakalavriatning IV kurs talabalari uchun majburiy amaliyot turi. Bu amaliyot turi uch bosqichdan: tayyorlov, asosiy, shuningdek hisobotlarni topshirish va baholashdan iborat. Bitiruv malakaviy amaliyot yakunlari yuzasidan baho o'qish bo'yicha baholarga tenglashtiriladi. U talabalar umumiy o'zlashtirishning yakunlarini chiqarishda hamda tegishli kreditlarini o'zlashtirilganligini belgilashda inobatga olinadi. Amaliyot yakunlari bo'yicha qoniqsiz baho olinishi talaba tomonidan tegishli kreditlarning qayta o'zlashtirilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Stajirovka – magistratura bosqichi talabalari uchun ixtiyoriy amaliyot turi. Stajirovka talabaning ixtiyoriga ko'ra qabul qiluvchi tashkilotlarda, pedagogik amaliyot sifatida esa akademik litsey va texnikumlarda o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish ko'rinishida o'tadi. Stajirovka o'taliganligi qabul qiluvchi tashkilotdan taqdim etiladigan ma'lumotnoma asosida kreditlarni hisobga olish tartibida belgilanadi.

"SUD AMALIYOTI" XONASI
OCHILDI

Prezidentimizning 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni ham bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Farmonga muvofiq, mamlakatimizda yuridik ta'limni zamon talablari darajasida takomillashtirish, ushbu yo'nalishda xorijiy davlatlardagi yuridik kadrlar tayyorlashning ilg'or tajribalari qo'llanilmoqda. O'zaro hamkorlik kuchaytirilib, amaldagi qonunchilik hujjatlarini yaxlit holda tizimlashtirish va milliy huquqiy tizimni yanada rivojlantirishning samarali usullari joriy etilmoqda.

Yuqoridagi talablarni amalga oshirish va Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning 30 yilligi munosabati bilan Termiz davlat universitetining Yuridik fakulteti professor-o'qituvchilari va talabalari uchun ajoyib tuhfa tayyorlandi. Fakultetda keng, shinam

va zamonaviy usulda jihozlangan "Sud amaliyoti" xonasi foydalanishga topshirildi. Amaliyot xonasining ochilishi talabalar uchun ham nazariy, ham amaliy ko'nikmalarni puxta egallashda yordam beradi.

"Sud amaliyoti" xonasining ochilish marosimida yaratilgan zamonaviy sharoitlar bo'lajak huquqshunoslarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini sifatli egallashiga xizmat qilishi ta'kidlandi.

– "Sud amaliyoti" xonasidagi barcha shart-sharoitlar talabalarimizning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga keng imkoniyatlar yaratadi, – dedi Termiz davlat universiteti rektori, professori A. Maraximov. – Yangi O'zbekistonning sud-huquq sohasini isloh qilib, qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi bo'lgan "Inson – jamiyat – davlat" tamoyili huquqiy-demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishda o'z natijasini bermokda.

Albatta, bunday yangilanishlar bo'lajak soha mutaxassislarini tayyorlash mas'uliyatini oshirmoqda. Bu esa endilikda talabalarlarning o'quv jarayoni va huquqni qo'llash amaliyoti o'rtasida uzviy aloqani ta'minlashga xizmat qiladi. Endi yosh huquqshunos talabalarimiz faqat nazariyani o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, tajribali amaliyot xodimlari yordamida amaliy bilim va ko'nikmalarini ham muntazam oshirib borishadi. Buning uchun esa "Sud amaliyoti" xonasida barcha qulayliklar yaratilgan.

Prezidentimizning 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida O'zbekistonda yuridik ta'limni o'qitishning hozirgi holati, yuridik ta'lim sohasida mavjud ayrim muammolar va ularni bartaraf etish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilgan edi. Shuningdek, farmonda o'quv jarayoni va huquqni qo'llash amaliyoti o'rtasida uzviy aloqani ta'minlash, talabalar faqat nazariyani o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, balki amaliy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga jiddiy ahamiyat qaratish lozimligi nazarda tutilgan edi. Uning amalda ijro etilishi esa talabalar uchun quvonchli yangilik bo'ldi. Bu esa sud jarayonlari bilan bog'liq amaliyot mashg'ulotlarini fakultetning o'zida tashkil qilish imkoniyatini beradi.

MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA 3

BUXORO

Mukofot
pullari
qayta to'lab
berildi

BUXORO tumanidagi 50-umumta'lim maktabi o'qituvchisi O. Murodova va boshqalarning oylik ish haqidani 460 ming so'm mablag' ushlab qolingani norozi bo'lib qilgan murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganildi.

O'rganish jarayonida mazkur maktab direktorining 2022-yil 15-maydagi buyrug'i hamda ishchi guruhning 2022-yil 15-maydagi yig'ilish bayonnomasiga asosan, direktor jamg'armasi mablag'lari hisobidan 4 nafar o'qituvchi - L. Boboyeva, M. Amonova, O. Murodova va O. O'rinalar 1 million so'm miqdorida rag'batlantirilgani ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, maktab direktorining 2022-yil 27-oktabrdagi buyrug'iga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, yuqorida nomlari zikr etilgan o'qituvchilar mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 50 foizi miqdorida,

ya'ni 460 ming so'mdan moddiy rag'batlantirilgan.

Biroq, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 29-bandiga asosan, umumta'lim muassasalari xodimlari faqat "1 oktabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan jamg'armaning mavjud mablag'lari hisobidan mukofotlanishi mumkinligini asos qilib, 2022-yil noyabr oyi ish haqidani 4 nafar o'qituvchidan 460 ming so'mlik mukofot pullari g'ayriqonuniy tarzda qaytarib olingan.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 279-moddasiga ko'ra, ish beruvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda to'langan, shu jumladan qonunni noto'g'ri qo'llash oqibatida to'langan ortiqcha ish haqi qayta undirib olinishi mumkin emas.

Yana bir murojaat muallifi G. Turdiyeva va mazkur maktab direktorining 2022-yil 22-sentabrdagi buyrug'iga asosan ingliz tili o'qituvchisi lavozimiga ishga qabul qilingan, unga 2022-yilning sentabr oyida 5 million 467 ming 866 so'm, oktabrda 5 million 480 ming 10 so'm, noyabr oyi uchun 5 million 733 ming 117 so'm oylik ish haqi to'langan bo'lib, direktorning 2022-yil 27-oktabrdagi buyrug'iga binoan 460 ming so'm miqdorida rag'batlantirish bo'yicha kiritilgan bo'lsa-da, buyruq bajarilmagan. Adliya bo'limi tomonidan tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri nomiga taqdimnoma kiritilgan, mukofot pullari o'z egalari to'lab berildi.

Abdurahimxo'ja BAFAYEV,
Buxoro tuman adliya bo'limi boshlig'i

SURXONDARYO

TERMIZ shahar adliya bo'limi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi "Muhandislik-kommunikatsiya tarmog'iga ulanish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining ijrosi o'rganildi.

ARIZAGA
E'TIBORSIZLIK...

O'rganish jarayonida shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markaziga 2022-yil 22-noyabrda kelib tushgan ariza "Surxondaryo suv ta'minoti" MChJ Termiz shahar bo'limiga yuborilgan bo'lsa-da, bo'lim xodimi X.U. tomonidan 2022-yil 29-noyabrda qadar unga javob berilmasdan, AAT orqali ko'rsatilishi lozim bo'lgan xizmatlar muddatining buzilishiga yo'l qo'yib, o'zining bu harakati bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 215-moddasi birinchi qismida ko'rsatilgan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan.

Aniqlangan holat yuzasidan shahar adliya bo'limi tomonidan ma'muriy bayonnomasini rasmiylashtirilib, jinoyat ishlari bo'yicha Termiz shahar sudiga yuborildi.

Ma'muriy ish sudda ko'rib chiqilib, "Surxondaryo suv ta'minoti" MChJ Termiz shahar bo'limi xodimi X.U. sudda uning qilishiga iqrar va pushaymonligi, muqaddam ma'muriy javobgarlikka tortilganligi, ollaviy ahvoli e'tiborga olinib, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 33-moddasi qo'llanilib, bazaviy hisoblash miqdorining ikkidani bir qismi miqdorida ma'muriy jarima jazosini tayinlash haqida sud qarori qabul qilindi.

Abdusalim JABBO'ROV,
Termiz shahar adliya bo'limi boshlig'i

TOSHKENT

FUQARO R. Ahmedova Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Mirzo Ulug'bek tuman bo'limi mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlaridan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

FUQARONING
NOROZILIK
MUROJAATI
O'RGANILDI

O'rganish jarayonida pensiya jamg'armasi M. Ulug'bek tuman bo'limi tomonidan arizachiga nisbatan yoshga doir pensiya tayinlanishida 1986-yil 3-yanvardan 1986-yil 13-fevralga qadar Mikrobiologiya institutida, 1991-yil 1-yanvardan 1991-yil 31-dekabrda qadar Davlat statistika qo'mitasida, 1992-yil 9-noyabrdan 1995-yil 1-iyulga qadar Oziq-ovqat savdo tashkilotida, 1995-yil 6-iyuldan 2001-yil 2-oktyabrda qadar "Paraxat" korxonasida, 2001-yil 15-oktabrdan 2004-yil 31-dekabrda qadar "Prombetonit" mas'uliyati cheklangan jamiyatida ishlagan davrlari inobatga olinmaganligi aniqlandi.

Adliya bo'limi tomonidan R. Ahmedovaning manfaatida Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning 2022-yil 23-dekabrda hal qiluv qarori bilan pensiya jamg'armasi M. Ulug'bek tuman bo'limining 2016-yil 30-dekabrda 1722-sonli qarori haqiqiy emas deb topilib, fuqaroning pensiyasini 2016 yil 30 dekabrda boshlab qayta hisob-kitob qilish majburiyati yuklatildi.

Abror BERDIYEV,
Mirzo Ulug'bek tuman adliya bo'limi yetakchi maslahatchisi

SIRDARYO

PREZIDENTIMIZNING 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, 2018-yil 1-iyundan davlat organlari va boshqa budjet tashkilotlarining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirishga mas'ul bo'lgan xodimlariga beriladigan har oylik ustama miqdori xodim lavozim maoshidan 100 foizdan kam bo'lmagan miqdorda belgilangan.

Xodimlarning ustama
pullari undirildi

Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan viloyatdagi davlat organlari va tashkilotlarida o'tkazilgan monitoring jarayonida ushbu normativ-huquqiy hujjat talablari buzilganligi, ayrim tashkilotlar tomonidan axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha mutaxassis lavozimida faoliyat yuritayotgan xodimlarga ustama pullari to'lab berilmayotganligi aniqlandi.

Jumladan, Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiya viloyat boshqarmasi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi, Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi, Sirdaryo davlat o'rmon xo'jaligi, viloyat qurilish bosh boshqarmasi, Davlat soliq boshqarmasi, Sportni rivojlantirish bosh boshqarmasi, Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, Xalq ta'limi boshqarmalari tomonidan axborot va kommunikatsiya texnologiyalari mutaxassis-xodimlariga qo'shimcha ustama pullari to'lanmagan.


Vaholanki, Mehnat kodeksining 154-moddasiga ko'ra, ish beruvchi moliyaviy ahvolidan qat'i nazar xodimga bajaragan ish uchun haqni belgilagan mehnat haqi shartlariga muvofiq to'lashi shart.

Yuqoridagilarga asosan adliya boshqarmasi tomonidan xodimlar manfaatini ko'zlab, fuqarolik ishlari bo'yicha Guliston tumanlararo sudiga da'vo arizalari, shuningdek, tegishli tashkilotlarga mazkur qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish yuzasidan taqdimnomalar kiritildi.

Adliya aralashuvi bilan davlat organlari va tashkilotlarining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirishga mas'ul bo'lgan 13 nafar xodimga 228 million 976 ming 24 so'm miqdorida ustama pullari to'lab berildi.

To'liq TURDIBEKOV,
Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

ANDIJON

Ishsiz qolgan
pedagoglarga
KOMPENSATSIYA
TO'LANMAGAN

DAVLATIMIZ rahbarining 2022-yil 14-apreldagi "Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi farmoniga asosan Andijon shahridagi 13-son ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi 2022-2023 o'quv yilida Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga aylantirilgan.

Shu munosabat bilan 2022-yilning 30-avgust kuni jamoaga maktab tugatilganligi to'g'risida ogohlantirish xati berilgan. Biroq ushbu ogohlantirish xatida ma'muriy tomonidan hech qanday ish taklif etilmagan, shuningdek qonunchilikda belgilangan ikki oylik kompensatsiya hamda foydalanilmagan mehnat ta'tili pullari to'lab berilmagan.

Maktabning sobiq o'qituvchisi M. Narova va boshqalar shahar adliya bo'limiga murojaat qilishga majbur bo'lgan.

Mazkur murojaat o'rganilganda, haqiqatan ham maktabning 64 nafar pedagog va texnik xodimlari bilan tuzilgan mehnat shartnomalari Mehnat kodeksining 100-moddasi ikkinchi qismi 1-bandiga asosan bekor qilingani aniqlandi.

Xodimlarni vazifasidan ozod etish haqidagi buyruqlarda ikki oylik o'rtacha ish haqi

to'lab berilishi ko'rsatilgan bo'lsa-da, biroq Xalq ta'limi bo'limi tomonidan to'lab berilmagan o'z tasdiqini topdi.

Vaholanki, qonunchiligimizda mehnat shartnomalari texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan bekor qilganda kamida ikki oy oldin ogohlantirilishi yoki xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan nazarda tutilgan ogohlantirish uning muddatiga muvofiq kelayotgan pullik kompensatsiya bilan almashtirilishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Ammo Mehnat kodeksining tegishli moddalarida belgilangan talablarga rioya etilmagan.

Adliya bo'limi tomonidan shahar Xalq ta'limi bo'limiga bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnoma kiritilishi natijasida xodimlarga 415 million 389 ming so'm kompensatsiya puli to'lab berildi.

Azizbek RAUPOV,
Andijon shahar adliya bo'limi bosh maslahatchisi

4 "MADAD" JAVOB BERADI



Savollarga "Madad" NNThing Samarqand shahar huquqiy maslahat byurosi bosh mutaxassisi **Malika TOLLIBAYEVA** javob berdi

MODDIY TA'MINOT OLIISH
HUQUQI MAVJUD EMAS

– Turmush o'rtog'im bilan 3 yil birga yashadik. Kelishmovchilik tufayli nikohdan ajrashganmiz, o'rtamizda farzand yo'q. Sobiq turmush o'rtog'imdan qonunda belgilangan tartibda moddiy yordam uchun ta'minot olishim mumkinmi?

– O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 119-moddasiga ko'ra, nikohdan ajralgandan keyin sobiq er yoki xotinga to'lanadigan aliment miqdori va uni to'lash tartibi sobiq er-xotin o'rtasidagi kelishuv bilan belgilanishi mumkin. Er-xotin (sobiq er-xotin) o'rtasida aliment to'lash to'g'risida kelishuv mavjud bo'lmagan hollarda er yoki xotinga (sobiq er yoki xotinga) sud tartibida undirib beriladigan aliment miqdori sud tomonidan er yoki xotinning (sobiq er yoki xotinning) moddiy va oilaviy ahvolini hamda taraflarning e'tiborga loyiq boshqa manfaatlarini e'tiborga olib, har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summa belgilanadi, biroq bu summa qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo'lmayligi lozim.

Kodeksning 118-moddasida esa nikohdan ajralganidan keyin sobiq er (xotin)ning ta'minot olish huquqi belgilangan. Unga ko'ra, yetarli mablag'ga ega bo'lgan sobiq er (xotin)dan:

- ☑ sobiq xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida;
- ☑ o'rtadagi nogironligi bo'lgan bolani u o'n sakkiz yoshga to'lguniga qadar parvarishlashni yoki bolalikdan I-guruh nogironligi bo'lgan bolani parvarishlashni amalga oshirgan, yordamga muhtoj bo'lgan sobiq xotin (er);
- ☑ nikohdan ajralgunga qadar yoki nikohdan ajralgan paytdan boshlab bir yil davomida mehnatga layoqatsiz bo'lib qolgan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);
- ☑ nikohdan ajralgan paytdan boshlab besh yil ichida pensiya yoshiga yetgan yordamga muhtoj xotin (er), agar er-xotin uzoq vaqt nikohda turishgan bo'lsa, sud tartibida aliment talab qilish huquqiga ega.

Ushbu holatda 3 yil, ya'ni sizning sobiq turmush o'rtog'ingiz bilan birga yashaganlik muddatingiz qisqa muddat deb topiladi. O'rtangizda farzand bo'lmaganligi sababli moddiy ta'minot olish huquqi mavjud emas.

IJARAGA UY BERMOQCHIMAN

– O'zingma tegishli kvartirani yashash uchun chet el fuqarosiga ijarasida bermoqchiman. Buning uchun qanday harakatlarni amalga oshirishim kerak?

– Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni doimiy yashash joyi va vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 28-avgustdagi qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi qaroriga muvofiq, chet el fuqarolarini viloyatlarda vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish mulkdorning arizasida yoki soliq idoralarda hisobga olingan ijara shartnomasida ko'rsatilgan, biroq bir yildan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi. Vaqtincha ro'yxatdan o'tish uchun Davlat xizmatlari markazi orqali murojaat qilingan hollarda, turar joy egasi nomidan Davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan, YalDXP orqali murojaat etgan taqdirda esa, mustaqil ravishda so'rovnoma elektron tarzda to'ldiriladi. Davlat xizmatlari markazlarida so'rovnoma to'ldirilgach, Ichki ishlar vazirligiga elektron tizim orqali yuboriladi. Mazkur harakatlar amalga oshirilgandan so'ng, chet el fuqarosi bilan muddatli ijara shartnomasi tuzilishi mumkin.

XAYRIYA BUYUMLARIDAN HAM BOJXONA
TO'LOVI OLINADIMI?

– CHET eldan O'zbekiston Respublikasiga eshitishida nuqsoni bor bolalar uchun mo'ljallangan maxsus quloqchinlar olib kirmoqchi edim, bojxona nazorati organi xodimlari qonunda belgilangan tartibda bojxona to'lovini amalga oshirishimni talab qilishdi. Men aslida bu buyumlarni tadbirkorlik faoliyati uchun emas, mamlakatimizda yashayotgan eshitishida nuqsoni bor bolalar uchun tegishli tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomaga asosan xayriya sifatida olib kirmoqchiman. Qonunchiligimizda bu haqda nima deyilgan? Xayriya tovarlari bojxona to'lovidan ozod qilinganmi?

– O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida bojxona bojidan ozod etish tarzidagi tarif imtiyozlari ko'rsatib o'tilgan. Mazkur kodeksning 297-moddasiga muvofiq, ushbu imtiyoz davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, shuningdek Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tashkilotlar va shaxslar yo'nalishlari bo'yicha xayriya yordami maqsadlarida, shu jumladan texnik yordam ko'rsatish (grantlar) uchun olib kiriladigan tovarlarga nisbatan tatbiq qilinishi ko'zda tutilgan. Shuningdek, 299-moddada bojxona rasmiylashtiruvchi uchun bojxona yig'imlarini to'lashdan ozod etiladigan tovarlar ro'yxatida beg'araz, insonparvarlik yordami yoki xayriya maqsadlari, shu jumladan texnik ko'mak uchun olib o'tilayotgan tovarlar keltirilgan. Agar haqiqatan ham O'zbekiston Respublikasidagi davlat organlari bilan xayriya maqsadida texnik uskunalar olib kelish bo'yicha maqsadli shartnoma tuzgan bo'lsangiz, Siz olib o'tayotgan tovarlar bojxona to'lovi hamda bojxona yig'imlaridan ozod qilinadi.

NAFAQA MIQDORI QANCHA?

– Farzandim betob bo'lgani uchun vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish haqimning qancha miqdorida to'lanadi?

– Mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini oluvchi shaxsga Mehnat kodeksining 285-moddasiga asosan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi kasal bo'linganda, mehnatda mayib bo'lgan yoki boshqacha tarzda shikastlanganda, shu jumladan turmushda jarohatlanganda, oilaning betob a'zosini parvarish qilganda, karantin e'lon qilganda, sanatoriy-kurortda davolanganida va protez qilinganda to'lanadi.



Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi mehnatda mayib bo'lgan va kasb kasalligiga chalinganda ish haqining to'liq miqdorida, boshqa hollarda esa, xodimning davlat ijtimoiy sug'urtasi baddallarini to'lgan muddatiga (umumiy ish stajiga), qaramog'idagi voyaga yetmagan bolalarining soni va boshqa holatlarga qarab, ish haqining oltmish foizidan yuz foizgacha miqdorda to'lanadi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasining eng kam miqdori qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 35,2 foizidan oz bo'lmayligi va nafaqa hisoblab chiqariladigan ish haqi miqdoridan ortib ketmayligi lozim.



TALABAMAN, ISHLASAM BO'LADIMI?

– Hozirda Samarqand davlat tibbiyot universitetining 5-kurs talabasiman. O'qish faoliyatim davomida shahar oilaviy poliklinikasiga ishga joylashsam bo'ladimi?

– Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi "Davlat tibbiyot muassasalarini kadrlar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, barcha tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining "Davolash ishi", "Pediatriya ishi" va "Tibbiy-profilaktika ishi" bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining bitiruvchi kurs talabalariga mehnat shartnomasi asosida to'liq stavkagacha birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida oilaviy shifokor, tez tibbiy yordam muassasalarida shifokor hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining tuman (shahar) bo'limlarida mavjud shifokor vakant o'rinlariga joylashtirilishi belgilab qo'yilgan. Mazkur holatda tibbiyot oliygohining bitiruvchi kurs talabasi yuqoridagi qarorda keltirib o'tilgan ta'lim yo'nalishlaridan birida tahsil olayotgan bo'lsa, vakant joylarga mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilinadi.

ARAZLAGAN
KELINIM CHET
ELGA KETIBDI...

– Kelinim o'g'lim bilan oilaviy kelishmovchilik sababli arazlashib qolgandi. Uni o'zining uyida deb yursak, chet elga chiqib ketganiga 2 oy bo'libdi. Shu holatda nikohdan ajratish qanday tartibda amalga oshiriladi?

– O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 20-iyuldgagi 6-sonli "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, er-xotindan biri doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ko'chib ketgan va uning sud majlisiga kelish imkoniyati bo'lmagan hollarda, sud O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari normalariga muvofiq taraflarni xabardor qilish choralarini ko'radi. Bundan tashqari, agar javobgarning doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyi haqida so'nggi bir yilda ma'lumotlar mavjud bo'lmasa, sud tomonidan bedarak deb topiladi va FHDYo organi tomonidan nikohdan ajratiladi.

VASIYATNOMA NOTARIAL
TASDIQLANMAGAN EKAN...

– Otam 2021-yilda vafot etdi. O'zining nomidagi uy-joy bilan mashinani to'ng'ich nabirasining nomiga vasiyat qilib qoldirgan. Ammo vasiyatnoma notarial tasdiqlanmagan ekan. Ushbu holatda vasiyatnoma haqiqiy hisoblanib, o'z kuchida qoladimi?

– O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 1124-moddasiga ko'ra, notarial tasdiqlangan vasiyatnomalar hamda notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalar haqiqiy deb topiladi. Agar vasiyatnoma notarius tomonidan yoki notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtirilgan vasiyatnomalarni rasmiylashtirish vakolatiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan tuzilgan bo'lsa, bunday vasiyatnomalar o'z-o'zidan haqiqiy hisoblanmaydi. Mazkur kodeksning 1130-moddasiga ko'ra, vasiyatnoma haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, ushbu vasiyatnomaga binoan merosdan mahrum bo'lgan merosxo'r umumiy asoslarda meros olish huquqiga ega bo'ladi. Mulkdor vafot etgandan so'ng, 6 oy o'tgach, meros ishi ochilib, marhumning barcha oila a'zolari meros olish huquqiga ega bo'lshadi.

Qonunchilikda mulkchilik munosabatlari

Konstitutsiyamizning 36, 53–55-moddalarida mulkchilik munosabatlarining konstitutsiyaviy asoslari mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 53-moddasiga muvofiq, “Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibidagina mulkidan mahrum etilishi mumkin”.

Taraqqiyotning yangi davrida mulkchilik munosabatlarini oqilona tartibga solishga yondashuv mulkdor va tadbirkorlar fikr va mulohazalarini inobatga olib, ularning manfaatlariga monand tarzda samarali amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2022-yil 24-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mulk huquqining kafolatlar tizimini va uni ishonchli himoya qilishning yangicha mazmunini belgilab berganligi bilan ahamiyatlidir. Mazkur farmonga muvofiq, xususiy mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini bevosita yoki bilvosita cheklashni nazarda tutuvchi, mulkiy munosabatlarda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini to‘liq joriy etishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator tartiblar, talablar va cheklavlar 2022-yil 1-sentabrdan boshlab bekor qilindi. Bu esa mulkdorlarning xohish-irodasiga to‘liq mos keladi.



Xususan, turarjoyga nisbatan mulkiy huquqlarga yoki turarjoy mulkdori bilan qarindoshlik aloqalariga ega bo‘lmagan shaxslarni ushbu turarjoydan doimiy ro‘yxatdan chiqarish uchun ularning roziligini olish nazarda tutildi, bundan tashqari o‘rtasida boshqacha kelishuv tuzilgan holatlar mustasno. Sud tomonidan turarjoyga nisbatan insofli egallovchi deb topilgan jismoniy shaxsdan ushbu turarjoyni unga nisbatan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab uch yil o‘tgach natura shaklida talab qilib olish belgilandi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga mulk huquqi bilan tegishli bo‘lgan bino va inshootlar, transport vositalaridan foydalanish sohasida – mulkiy huquqlarning vujudga kelishi uchun asos bo‘lgan ma‘muriy hujjatlarni ushbu hujjatni qabul qilgan yoki yuqori turuvchi ma‘muriy organ va mansabdor shaxslar tomonidan, xususan, prokuror protesti asosida bekor qilish yo‘li bilan huquqlarni tugatish holatlarini ham nazarda tutadi. Bundan ushbu hujjatlarni sud tomonidan bekor qilish yoki haqiqiy emas deb topish holatlari mustasno.

YANGI O‘ZBEKISTONNING iqtisodiy negizini mustahkamlash mulkchilik munosabatlarini rivojlantirishga, ayniqsa, mulkning daxlsizligini ta‘minlashga, mulkdorlar huquq va manfaatlarini ishonchli va tizimli himoya qilishga uzviy bog‘liqdir. Islohotlarning yangi bosqichida mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirishga oid chora-tadbirlar ko‘rilayotganligi mulk huquqini amalga oshirish va uni himoya qilishning mustahkam kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda.



MULK HUQUQI MUDDATSIZDIR,

ammo u qonuniy himoyaga muhtoj

Uzoqni ko‘zlab amalga oshirilayotgan samarali islohotlar fuqarolarning erkin mulk huquqini amalga oshirishga, ayniqsa, kambag‘allikni qisqartirishga va o‘zini o‘zi band qilishga zamin yaratadi. Bu esa, xalq manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilayotgan islohotlarning bardavomligini ta‘minlashga, fuqarolarda mulkka nisbatan erkin egalik tuyg‘usini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, mulk huquqi shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir, ammo u qonuniy himoyaga muhtoj.

Mulk huquqi – daxlsiz

Mulk huquqi daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvni cheklash maqsadida bir qator huquqiy institutlarni qonunchilikda va yuridik amaliyotda qo‘llash ko‘lamini yanada kengaytirish choralarini belgilandi. Fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari, jumladan, insofli egallovchining mulkiy huquqlari himoya qilinadi. Mulkdorning buzilgan huquqlarini tiklashning moliyaviy mexanizmlari ko‘llaniladi. Kredit ta‘minoti sifatida garovga qo‘yilgan mol-mulk belgilangan tartibda auktsion orqali sotilganda, kreditorning roziligiga ko‘ra, sotib oluvchiga mulkning qiymatini uch yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi beriladi.

Ma‘muriy va jinoyi javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladigan xususiy mulk huquqini buzish holatlarini xususiy mulk huquqini erkin amalga oshirishga aralashish va daxlsizligini buzish deb hisoblanadi. Bu esa ularga nisbatan jinoyi javobgarlikka tortishgacha bo‘lgan choralar qo‘llanilishiga asos bo‘ladi.

Jumladan, qonunchiligimizda xususiy mulk obyekti va u joylashgan hududga, shu jumladan, turarjoy bo‘lmagan ko‘chmas mulk obyektiga mulkdorning ruxsatisiz kirish, bu haqda uchinchi shaxslarga ko‘rsatma berish, mol-mulkni va unga bo‘lgan huquqni boshqa shaxsga o‘tkazish, foydalanishga

berish yoki boshqacha tarzda tasarruf etishga aralashish, bu haqda huquqiy hujjat qabul qilish, mulkdorga uning ixtiyoriga zid tarzda mol-mulki bilan bog‘liq ijtimoiy, iqtisodiy yoki boshqa davlat va jamoatchilik vazifalarini yuklash yoxud nomaqbul shartlarni qo‘yish taqiqlangan. Shuningdek, mulk-mulkdan mulkdorning roziligisiz va tegishli haq to‘lamasdan foydalanish, mol-mulkka egalik qilish va undan foydalanishga oid ma‘lumotlarni so‘rash yoki bunday ma‘lumotlarni mulkdorning ruxsatisiz ishlash, mulk va mulkiy huquqlardan sud qarorisiz mahrum etish yoki mulkdorga ulardan voz kechishga qaratilgan har qanday jismoniy, ruhiy yoki boshqa shakldagi majburlor choralarini qo‘llash, tazyiq o‘tkazish yoxud mol-mulkni tasarruf etishga doir asossiz talablarni qo‘yish kabi xatti-harakatlar ham huquqiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Bundan tashqari, qilmishning jinoyilgini istisno qiladigan holatlarni, shu jumladan, uning zaruriy mudofaa turini, zaruriy mudofaa holatida o‘zi himoya qilish huquqiga ega bo‘ladi. Bunda mulkdor yoki uning vakili o‘z mulkini har qanday tajovuzdan huquqni buzishga mutanosib ravishda va huquq buzilishining oldini olish uchun zarur harakatlar doirasida himoya qilish nazarda tutilgan.


Ko‘char mulk o‘zboshimchalik bilan olib qo‘yilganda mulkdor ta‘qib qilish orqali uni qaytarib olishi, ko‘chmas mulkka nisbatan esa unga o‘zboshimchalik bilan kirgan yoki egallab olgan shaxsni chiqarib yuborish orqali egaligini tiklashi

mumkin bo‘ladi. Mulkni o‘zboshimchalik bilan egallash yoki unga kirish yoxud mulk daxlsizligini boshqacha tarzda buzish qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

Mamlakatimiz tadbirkorlari ham na faqat real maydonda, balki virtual makonda savdo-sotiq faoliyatida faol ishtirok etayotganligi, ularning ham jahonda tanilishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Fuqarolik muomalasiga raqamli mahsulotlar tushunchalarining kirib kelishi mulkdorlar huquqlarini internet orqali ular huquq va manfaatlarini amalga oshirish va uni himoya qilish uchun yangi qoidalarini ishlab chiqish zariyatini keltirib chiqarmoqda.

“Bulutli texnologiyalar”

Amaldagi qonunchilikning mohiyatidan kelib chiqsak, raqamli mahsulotlar deganda intellektual mulk obyektlarining elektron ko‘chirma nusxalari (raqamli tovarlar), shuningdek elektron axborot muhitida moddiy natijaga ega bo‘lmagan muayyan harakatlarni bajarish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish tushuniladi. Shuningdek, “bulutli texnologiyalar”ni (raqamli xizmatlarni) olishga hamda ularga obuna bo‘lishga doir xizmatlar tushuniladi. Mulk huquqi subyektlari uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar ularning dunyoga mashhur brendga ega bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga chorlamoqda.



Buning uchun soliq, bojxona, yer, fuqarolik, tadbirkorlik, investitsiya, mulk, raqobat qonunchiligini yanada takomillashtirish kerak. Mulk huquqining raqamli transformatsiyalashuvi uning subyektlari mulkiy huquqlarining daxlsizligini ta‘minlash, uni virtual makonda amalga oshirish va himoya qilish masalasida ijtimoiy adolat, erkinlik, qonuniylik prinsiplarini amalda qaror toptirishga xizmat qilishi lozim.

Prezidentimiz Murojaatnomada alohida ta‘kidlaganidek: “Albatta, erishayotgan barcha yutuqlarimiz, inson qadri ulug‘ bo‘lgan diyor – Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi dastlabki natijalardir. Biz bunyodkor xalqimiz bilan birga bunday ezoq ishlarni davom ettiramiz va oldimizga qo‘ygan katta-katta marralarga albatta erishamiz. O‘zbekistonda mulk va investitsiyaning himoyachisi faqat Konstitutsiya, qonun va sud bo‘ladi”.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarida o‘z mulkiga nisbatan mulkdorlik tuyg‘usini mustahkamlab, o‘z biznesini ishonch bilan yanada rivojlantirishga, kambag‘allikni qisqartirish, o‘zini o‘zi band qilish, erkin mulk huquqini adolati va oqilona amalga oshirish, mamlakatimiz iqtisodiyotining raqamli mulk munosabatlari transformatsiyalashuviga, mehnatsevar va ishbi-larmon xalqimiz farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

Shuxrat RO‘ZINAZAROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Biznes huquqi” kafedrasini professori,
yuridik fanlar doktori

6 MUNOSABAT

MA'MURIY islohotlar davlat boshqaruvi tizimini ixchamlashtirish va aholiga qulayliklar yaratish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday islohotlar davlatning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu boisdan, ushbu islohotlarni amalga oshirayotganda har doim inson va jamiyat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish lozim.



MA'MURIY ISLOHOTLAR TARIXIY ZARURAT EDI

Yaqinda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni imzolandi. Ushbu hujjat ham ijro etuvchi davlat organlarining faoliyatini tubdan isloh qilishga oid bo'lib, unda Hukumat tarkibi o'zgartirildi.

Yuqoridagi Prezident farmonida ko'rsatilgan eng asosiy uchta o'zgartirishga urg'u berishni lozim topdim.

Birinchi, bu vazirliklarning soni kamaytirilgani va idoralarning ayrimlari tugatilishi bilan birga vazirliklar huzuriga o'tkazilganidir. Bunda umumiy 25 ta vazirlik 21 ta vazirlikka qisqardi.

Ko'pchilik bizdek rivojlanayotgan davlat bilan rivojlangan davlatlarning ijro etuvchi organlarini taqqoslashadi. Ammo bunday taqqoslash har doim ham to'g'ri emas. Chunki, rivojlangan davlatlar hozirgi kunga qadar har xil ijro etuvchi organlar tizimini qo'llab ko'rgan va o'z davlatiga qulay tizimni tanlab olishgan. Biz esa o'z davlat rivojlanish strategiyamiz va mentalitetimizdan kelib chiqqan holda ma'muriy islohotlarni amalga oshiramiz. Vazirliklar soni o'sha davlat hududining katta yoki kichikligi, aholi soni va aholining turmush tarzidan kelib chiqqan holda taqsimlanishi lozim. Vazirliklar bizga aholida mavjud bo'lgan muammoni bartaraf etish uchun yoki mavjud holatni bir maromda ushlab turish uchun tashkil qilinadi. Vazirliklarining soni kam bo'lgan ayrim rivojlangan davlatlarda mavjud bo'lmagan muammolar halli bizning jamiyatda mavjud va shu boisdan ham rivojlangan davlatlarda mavjud bo'lmagan vazirliklar bizda bor bo'lishi mumkin. Shu asosda aytish mumkin, hozirgi kundagi vazirliklar soni biz uchun normal holatdir.

Ikkinchi, bu vazirliklarning o'z shtatlaridan o'zlari mustaqil va maqsadli foydalana olishidir. Endilikda vazirliklar hududlarda tarkibiy bo'linmalar tashkil qilishi yoki kerak bo'lmaganlarini tugatishi mumkin bo'ladi, bunda "yuqoridagilarning" roziligi shart emas. Bu ishni vazirliklar mustaqil amalga oshiradi. Bu eng katta yutuqlardandir. Chunki, shunday holatlar bo'ladi, ayrim tumanlarda tarkibiy bo'linmaga hojat yo'q bo'ladi-yu, ayrimlarida esa shtat yetishmovchiligi vujudga keladi. Shunday vaziyatda vazirliklar o'zi ushbu muammoni hal qila oladi.

Uchinchisi, ijro etuvchi hokimiyat organi xodimlarining sonini 30 foizgacha maqbullashtirishdir. Bu ko'plab keraksiz shtatlarni yo'q qilishga va munosib xodimlarni ishda saqlab qolishga undaydi. Shu bilan birga xodimlarga adolatli haq to'lash amalga oshiriladi. Bu esa xodimlarda ishlash ishtiyoqini oshiradi.

Shular bilan birga, vazirlik, qo'mita, agentlik va inspeksiya atamalariga ham ta'rif berib o'tildi. Shu orqali ularning vazifa va funksiyalarini aniq bilib olish mumkin bo'ladi. Alohida maqomga ega hamda bevosita Prezidentga va (yoki) Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadigan qo'mita, agentlik va inspeksiya tashkil etilishi mumkinligi ham belgilandi.

Qisqa qilib aytganda, to'g'ri shakllantirilgan ma'muriy islohotlar taraqqiyotning kafolatidir.

Salamat TUREMURATOV,

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

"AVVAL – INSON, KEYIN – JAMIYAT VA DAVLAT"

KEYINGI yillarda mamlakatni isloh qilish, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning salmoqli qismini sud-huquq sohasidagi islohotlar tashkil etadi. Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga navbatdagi Murojaatnomasida sud-huquq sohasidagi mavjud muammolar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlarga ham alohida to'xtalib o'tildi. Xususan, hozirgi kunda tergov sifatining past darajada ekanligi, sudlarda odamlarning ovoragarchiligi, sud qarorlarining ijro etilmay qolayotgani, davlat hisobidan bepul ta'minlanadigan advokatlarni elektron tanlash tizimi ishga tushmaganligi bilan bog'liq holatlar alohida qayd etildi.

Tergov bosqichida shaxs huquqlarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish, ularning malakali yuridik yordamga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, shaxsiy hayot hamda xususiy mulk daxlsizligining ishonchli himoyasini ta'minlash sud-huquq sohasidagi birinchi navbatdagi vazifalardan biri bo'lishi lozim.



Murojaatnomada sud-huquq sohasida bir qator islohotlarni amalga oshirish lozimligi qayd etildi. Jumladan, ayrim tergov va protsessual harakatlarni amalga oshirishga ruxsat (sanksiya) berish huquqini prokurordan sudlarga o'tkazish qayd etildi. Bunda tintuv va telefon so'zlashuvini eshitib turish tergov harakatlari amalga oshirish hamda mulkiy huquqlarning daxlsizligini ishonchli himoya qilish va davlat organlarining mulkiy munosabatlarga noqonuniy aralashuvini cheklash maqsadida mol-mulkni xatlash huquqini sudlarga o'tkazish nazarda tutilmoqda.

Mazkur tartibning joriy etilishi "Xabeas korpus" institutini yanada kengaytirish orqali, tergov ustidan samarali sud nazoratini ta'minlashga, prokurorning nazorat bilan bog'liq ayrim vakolatlarini sudga o'tkazishga, sud organlarining mustaqilligi va obro'sini yanada kuchaytirishga hamda shu orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham "Xabeas korpus" institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, ishlarni ko'rib chiqishda taraflarning tortishuvchanligini yanada kuchaytirish va odil sudlovni ta'minlashda himoyachiga berilgan huquqlarni yanada kengaytirish nazarda tutilmoqda.

Bunda, sud-tergov amaliyotida ayblov va himoya taraflarining tengligini ta'minlash maqsadida himoyachining vakolatlari kengaytirilib, himoyachiga jinoyat ishini qo'zg'atish va jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qarorlardan nusxalar olish huquqi berilishi nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, sudlarga jinoyat

ishi faqat ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi bilan emas, balki himoyachining fikri bilan birga qabul qilindigan tartibni belgilash taklif etildi. Mazkur tartibning joriy etilishi sud-tergov amaliyotida ayblov va himoya taraflarining tengligini hamda protsess ishtirokchilarining himoyaga bo'lgan huquqlarini ishonchli ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Murojaatnomada sudda jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda qatnashadigan alohida prokurorlar korpusini shakllantirish taklif etildi. Ma'lumki, prokuror birinchi instansiya hamda yuqori instansiya (apellyatsiya, kassatsiya) sudlarida jinoyatlarga doir ishlarni ko'rishda ishtirok etib, davlat ayblovini quvvatlaydi. Hozirda ish hajmining yuqori ekanligi hamda davlat ayblovchilari sonining yetarli emasligi jinoyat ishi materiallari bilan to'liq tanishib chiqish, davlat ayblovchisi pozitsiyasini shakllantirishga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, sudda davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaydigan davlat ayblovchilarini maxsus o'qitish mexanizmi ham ishlab chiqilishi ta'kidlandi. Bugungi kunda davlat ayblovchilarining sud tergov vaqtida passiv ekanligi, o'zining tashabbusi bilan protsess ishtirokchilariga savollar berish orqali ishning holatlariga

oydinlik kiritmaslik holatlari uchramoqda.

Xulosa qilib aytganda, Murojaatnomada belgilangan sud-huquq sohasidagi islohotlar adolat va qonun ustuvorligiga asoslangan demokratik huquqiy davlat barpo etishga, fuqarolarning huquqi o'ngi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, eng

asosiysi, yurtimizda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash orqali "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat" g'oyasini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi aniq.

Baxtiyor XIDOYATOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti professori

VAZIRLAR MAHKAMASINING 2021-yil 3-dekabrda "Rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan mamlakatimizda tuzilgan rasmiy hujjatlarga elektron apostil qo'yish tizimi yaratilgan.



ELEKTRON APOSTIL

U RASMIY HUJJATLARGA QANDAY QO'YILADI?

Apostil bilan Xorijiy rasmiy hujjatlarni legal-lashtirish talabini bekor qiluvchi konvensiya-ni (Gaaga, 1961-yil 5-oktabr) 5-moddasiga muvofiq, rasmiy hujjatni imzolagan mansabdor shaxsning imzosi haqiqiy, imzolash vakolati mavjudligi hamda hujjatni tasdiqlagan muhr yoki shtamp bosma izi haqiqiy tasdiqlanadi. Apostil rasmiy hujjatni imzolagan mansabdor shaxsning imzosi haqiqiy, imzolash vakolati mavjudligi hamda hujjatni tasdiqlagan muhr yoki shtamp bosma izi haqiqiy tasdiqlaydigan, konvensiyaga muvofiq rasmiy hujjatga chet elda foydalanish maqsadida qo'yiladigan maxsus shtampdir. Apostil qo'yish rasmiy hujjatni imzo-

lagan mansabdor shaxsning imzosi haqiqiy-ligini, imzolash vakolati mavjudligini hamda hujjatni tasdiqlagan muhr yoki shtamp bosma izi haqiqiy tasdiqlash uchun zarur bo'lgan rasmiy tartib-taomil hisoblanadi.

Ayni paytda ta'lim va fan sohasiga tegishli rasmiy hujjatlarga, tegishli hududdagi adliya organlari va muassasalaridan hamda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlaridan, sudlardan, prokuratura, tergov, surishtiruv va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlardan chiqadigan rasmiy hujjatlarga, shu bilan birga boshqa rasmiy hujjatlarga Tashqi ishlar vazirligi tomonidan apostil qo'yish bo'yicha davlat xizmatidan foydalanish mumkin.

Bu boradagi murojaatlar davlat xizmatlari markazlari yoki yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilinadi. Buning uchun bazaviy hisoblash miqdorining 20 foizi miqdorida yig'im undiriladi.



So'rovnoma rasmiy hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 2 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi. Zarur hollarda esa 10 ish kuni ichida ko'rib chiqilishi mumkin. Elektron apostil qo'yish bilan bog'liq barcha jarayonlar "E-App" va "E-register" dasturlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Bahodir XUDOYBERDIYEV,
Termiz tuman adliya bo'limi davlat
xizmatlari markazi direktori

SARIOSIYO tumani "Bog'ishirin" mahallasida yashovchi Dilbar Rahimova 1998-yil 20-sentabrda tug'ilgan farzandi Muhridin Rahimovga shu kungacha tug'ilganlik haqidagi guvohnomani olmagan edi. D. Rahimova Sariosiyo tumani adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi xodimlari tomonidan mahallada o'tkazilgan sayyor qabulda bu borada amaliy yordam so'rab, murojaat qildi.


Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-fevraldagi "Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish va notarial organlar sohasida hamda rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishining ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan shu haqdagi nizomning 7-bandida bola tug'ilgunga qa-

dar uning otasi vafot etgan vaqtdan, ota-onasi nikohi bekor qilinganligidan yoki ota-onasining nikohi sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgandan keyin 300 kundan ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa, ariza beruvchi tomonidan nikohdan ajralganlik haqidagi guvohnoma, sudning nikohdan ajratish haqidagi qaroridan ko'chirma (nusxa) yoki nikohni haqiqiy emas deb topganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan qaroridan ko'chirma (nusxa) yoki otasining o'limi haqidagi guvohnoma taqdim etilishi belgilangan.

Shu bois, D. Rahimovning murojaati shu kunning o'zidayoq tegishli FHDYO organiga yo'naltirildi. Natijada ayolning o'g'li Rahimov Muhridin Said o'g'liga tug'ilganlik haqidagi guvohnoma rasmiylashtirib berildi.

Furqat BOBOSHARIPOV,
Muhammad
MUHAMMADIYEV,
Sariosiyo tumani adliya
bo'limi davlat xizmatlari
markazi mas'ul xodimlari

MA'LUMKI, har yil kuz-qish mavsumida turli isitish pechlari va moslamalariga ehtiyoj tug'iladi. Shunda ayrim yurtdoshlarimiz ulardan noto'g'ri foydalanishi tufayli yong'inlar yuzaga keladi. Bunday favqulotda holatlar esa ko'pincha ayanchli oqibatlarga olib keladi.



TILSIZ YOVDAN SAQLANING!

Albatta, aholi turar joylari va xalq xo'jaligi tarmoqlarida sodir bo'layotgan yong'inlar hamda boshqa ko'ngilsiz hodisalar har birimizni tashvishga soladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yong'inlarning aksariyat qismi gaz uskunalarini va isitish pechlarini nosoz holda ishlatish, dudburonlarni o'z vaqtida tozalamaslik oqibatida kelib chiqmoqda. Binobarin, hamyurtlarimizga ayrim tavsiyalarni berishni lozim topdik.

Yong'inlarning oldini olish uchun quyidagilarga qat'iy amal qiling:

- ☒ uydan chiqayotganda barcha elektr moslamalarni va gaz uskunalarini o'chirishni unutmang;
- ☒ gaz isitish pechlarini nazoratsiz qoldirmang;
- ☒ gaz isitish pechlarining dudburonlarini doimiy ravishda tozalanishini ta'minlang;
- ☒ gaz plitalari ustida kiyim-kechaklarni quritmang;
- ☒ gaz plitasi ustida qozon yoki choynakni nazoratsiz qoldirmang;
- ☒ gaz plitalarini rezina shlanglari orqali ulab olmang.

Qayd etilgan tavsiya va ko'rsatmalarga amal qilsangiz, yong'inlar, hatto fojialarning oldini olishga ko'maklashgan, eng muhimi o'zingiz hamda yaqinlaringizning xavfsizligini ta'minlagan bo'lasiz.

Nurbek NURMONOV,
Mirobod tumani favqulotda vaziyatlar boshqarmasi
profilaktika va nazorat bo'linmasi inspektori

E'LONLAR


Navoiy viloyat adliya boshqarmasining 2022-yil 28-dekabrda gi 319-um-sonli buyrug'iga asosan advokat Qodirov Husniddin Qilich o'g'liga boshqarma tomonidan 2021-yil 16-sentabrda berilgan NV №000111-raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

Buxoro viloyat adliya boshqarmasi tomonidan "Advokatura to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq, Advokatlar palatasi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2022-yil 26-noyabrda gi 17-sonli qaroriga asosan Buxoro viloyat adliya boshqarmasining 2022-yil 29-dekabrda gi buyrug'iga bilan "Buxoro" advokatlar hay'ati advokati Ashurov Shavkat Ashrafovichning og'ir kasalligi sababli - sog'ayguncha (biroq ko'pi bilan bir yilga) advokatlik maqomi to'xtatildi.

Xorazm viloyat adliya boshqarmasining 2022-yil 27-dekabrda gi 221-um-sonli buyrug'iga asosan "Jaloliddin Manguberdi himoyachilari" advokatlar hay'ati advokati Kutlumuratov Ozatga 2018-yil 27-dekabr kuni HZ №000007 raqami bilan, "Inson va adolat" advokatlik byurosi advokati Matchanov Farhod Erkinovichga 2019-yil 17-yanvar kuni HZ №000137 raqami bilan berilgan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyalarning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

Namangan viloyat adliya boshqarmasi tomonidan "Yuridik Globus" advokatlar hay'ati advokati Abdullayev Odiljon Nabijonovichga 2018-yil 24-dekabrda berilgan NA 000073-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi "Advokatura to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 16-moddasiga asosan tugatildi.

O'N TO'RT YOSHIDA "TUG'ILGAN" BOLA



Davomi. Boshi o'tgan sonda K

Edgar Allan Po

Yurak



Yurak



U mudhish ko'kimgir ko'zlarini katta-katta ochib o'rgimgchak to'ridek ingichka nur tolasiga tiklarkan, qorachiqilarida g'azabga o'xshash alomat ko'rdim. Uning meni asabimga mislsiz azob beradigan nigohlariga ko'zim tushishi bilan miyamning suyaklariga qadar muzlab ketdim: ayni paytda men cholni ham, uning dahshatga belangan yuzini ham ko'rolmasdim, chunki shu'laning uning mal'un ko'zlariga o'nglab turardim xolos.

Shu chog'da yana bir o'tkir o'y miyamni tilib o'tdi: qo'shni eshita-ya? Cholning kuni bitgandi. Quloqni qomatga keltirib qichqirgancha, fonarni bor bo'yicha ochib, xonaga otilib kirdim. Chol esa, bir marta, faqat bir martagina ingray oldi, xolos. Men uni sudrab pol ustidagi qalin to'shak ustiga olib kelib yotqizdim. O'zimcha, mamnun iljayib qo'ydim. Hammasi risoladagidek ketayotgandi. Daqiqalar ortidan daqiqalar o'tib borar, uning yuragi zaifligina urib turardi. Bu ovoz endi devorning narigi tomoniga eshiltildi. Nihoyat to'xtadi. Chol o'ldi. Men uning ustidagi ko'rpani ochib jasadni ko'zdan kechirdim: chol haqiqatan ham o'lib yotardi. Qo'limni uzoq vaqt ko'ksiga qo'yib turdim – yurak urmasdi. Uning manfur ko'zlarini endi meni hech qachon bezovta qilmaydi.

Agar siz meni haliyam jinni deb o'ylayotgan bo'lsangiz, o'likni qanday qilib saranjomlaganimni eshitsangiz, bu fikringizdan tamoman voz kechasiz. Tun yarmidan oqqandi, men esa fursatni boy bermay, ehtiyotkorona ishga kirishdim. Uch dona pol taxtasini ko'chirib oldim-da, jasadni polning tagiga joyladim. Keyin esa, yana avvalgidек taxtalarni joy-joyiga mixlab qo'ydim. Hech kim oddiy ko'z bilan hech narsani payqay olmasdi.

Soat tonggi to'rtga yaqinlashib qolgan bo'lsa-da, hali kechasiga o'xshardi. Qo'ng'iroq to'rtinchi bor jom chalganida, ko'cha eshigi taqilladi. Hech narsa bo'lmagandek, borib eshikni ochdim, nimadan qo'rqaman. Uch nafar politsiya xodimi o'zini tanishtirib ichkariga kirishdi. Qo'shni yarim kechasi bizning xonamizdan ajabtovur qichqirgini eshitib, qandaydir noxushlik yuz berganligini gumon qilgan va politsiya uchastkasiga xabar bergan ekan.

Men miyig'imda kulimsiradim. Nimaga qo'rqar ekanman? Politsiyachilarga kechasi yomon tush ko'rsam dod solish odatim borligini aytdim. Chol hozircha dam olish uchun qishloqqa ketganini tushuntirdim. Xonalarni ko'rsatdim. Mana, istagan yeringizni qarang, ko'ring, dedim. Keyin ularni cholning xonasiga olib kirdim, boyliklarini ko'rsatdim. Mana, hammasi bus-butunicha turibdi. Hatto, ularni xushmuomalalik bilan stulga o'tirishga da'vat etdim. Charchab ketgan-da, bechoralar. Men o'zimni mutlaqo g'olib sanardim. O'zim o'tirgan stul boyagina sug'urilib qayta mixlangan taxtalar ustiga qo'yilgandi.

Ular mendan mamnun edilar. O'zimni juda bemaol va xotirjam tutayotgandim. Har bir savolga hazil-huzul bilan javob qaytardim. Shunda ular o'zaro gaplasha ketishdi. Biroq ko'p o'tmay rangim oqara boshlaganini, kutilmagan mehmonlarning tezroq ketishini istayotganimni sezdim. Boshim og'rib, qulog'im ostida qandaydir ovoz shang'illay boshladi. Ular hali-veri turay deymasdim. Boyagi tovush bo'lsa qulog'im tagida tobora aniqroq va qattiqroq eshitila boshladi.

Bundan o'zimni biroz yo'qotib qo'ydim, biroq nutqim haliyam ravon edi. Ovoz esa kuchayib kelaverdi, nima qilishim kerak? Tovush juda yaqindan, o'qtin-o'qtin, xuddi paxtaga o'ralgan soatning chiqillashi kabi eshiltildi. Men bu ovozdan bo'g'ilib ketdim. Politsiyachilar bo'lsa buni eshita olishmasdi.

Betoqat bo'lib ketdim, o'rnimdan sapchib turdim-da, nimalarnidir o'zimcha go'ldiray boshladim – ovoz kuchayaverdi. Anavilar nega ketmayapti? U yoqdan-bu yoqqa bezovtalanib borib kelaverdim. Mehmonlar meni xavotirga solib qo'yishgandi. Ovozning o'chgur ovoz esa, varanglab borayotir. E Xudo! Nima qilishim kerak? A'zoyi badanimni ter bosdi, o'z-o'zimcha so'kina boshladim. Mening qurbonim qo'nim topgan pol ustida turgan stulni asabiy aylantiraman, uyqo-buyoqqa siljitib, go'yoki, shu bilan la'nati tovushni tinchitmoqchi bo'laman – u esa battar avjiga minadi. Balandlab boraverdi, boraverdi, boraverdi... Mehmonlar esa, hech gap bo'lmagandek o'zlaricha gurunglashib o'tiraverdilar. Nahotki, ularga eshiltilmayapti? Yo'q, yo'q, o, Parvardigori olam! Ular eshittishgan, bilishadi, shunchaki, mening qo'rqayotganimni ko'rib, kalaka qilishyapti. Menga o'sha payti shunday tuyulgandi, haliyam shunday tuyuladi. Nima bo'lsa, bo'ldi – shu azobdan qutulsam bas. Ularning masxaraomuz tirjayishiga ortiqcha toqat qiolmayman. Bu kinoyali tabassumlarga boshqa chidolmayman. Agar hozir qichqirib yubormasam, aniq o'laman. O'h la'nati ovoz, qulog'imni teshib yuboradi hozir.

– Vahshiylar, – deya baqirdim o'zimni tutolmay, – bo'ldi, bas, yetar!!! Tan olaman, men o'dirdim uni, men! Mana, taxtalarni ko'chirib oling! Ha, xuddi shu yerda. Uning yuragi tinimsiz uryapti, uning yuragi meni tinch qo'ymaypti!!!

Rus tilidan Rustam JABBOROV tarjimasida

SO'RAGAN EDINGIZ



Tadbirkorlik subyektini ixtiyoriy tugatish tartibi qanday?

VAZIRLAR MAHKAMASINING 2019-yil 21-avgustdagi "Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik subyektlarini davlat reyestridan chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi qaroriga ko'ra, tadbirkorlar o'z faoliyatlarini ixtiyoriy ravishda tugatishlari mumkin. Buning uchun esa davlat xizmatlari markaziga murojaat qilish lozim.



Tijorat tashkilotini ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qaror uning muassislari, vakillari yoki vakolatli organ tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qabul qilinadi. Qarorda tugatilayotgan tadbirkorlik subyekti, tugatuvchi haqidagi ma'lumotlar, tugatilayotgan tadbirkorlik subyekti bo'yicha murojaatlarni qabul qilish joyi va muddati, tadbirkorlik subyekti tugatish sababi va mo'ljallanayotgan tugatish muddati o'z aksini topishi kerak.

Tugatuvchi ixtiyoriy tugatishni amalga oshiradi va tijorat tashkilotining kreditorlari, muassislari hamda boshqa tegishli shaxslar manfaatlariga rioya etilishini, qolaversa, tijorat tashkiloti qarzdor sifatida ishtirok etgan ijro hujjatlarining ijrosini belgilangan tartibda ta'minlaydi.

Bundan tashqari, tugatuvchi o'z vakolatiga kiritilgan masalalarni hal qiladi hamda muassislar qaroriga ko'ra berilgan taqdirda boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Tijorat tashkilotining yer solig'i, yagona yer solig'i, mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq, shuningdek, barcha turdagi soliqlar va yig'img'lar bo'yicha penyalarni hisoblab yozish to'xtatiladi. Tijorat tashkiloti faoliyat yuritgan davri mobaynida soliqlardan qarzi mavjud emasligi, qarzdor sifatida ishtirok etgan ijro hujjatlarini mavjud emasligi, hisob raqamlari yopilgan holatda bo'lsa, tizim tomonidan avtomatik ravishda ro'yxatdan o'tkazuvchi organga kelib tushadi va u tugatishga tayyor holatga o'tadi. Bunda tugatuvchi tijorat tashkiloti hujjatlarining belgilangan tartibda davlat yoki nodavlat arxiviga topshirilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomani Davlat xizmatlari markaziga olib keladi va markaz xodimlari tomonidan tijorat tashkiloti davlat reyestridan chiqariladi.

Gulnora PANJIYEVA,

Termiz tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi mas'ul xodimi

INSON VA QONUN

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2027-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olinganBosh
muharrirAsliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Muzraf Ikramov
Furqat Tojiyev
Shoxidaxon Yuldasheva
Sevara O'rinboyeva
Yorabek Iskandarov
Dilfuza ErgashevaTahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.Navbatchi
Xurshid Sultonov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"
ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter
bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq
hajmda, ofset usulida "Business print" xususiy korxonasi
bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, So'g'ali ota, 5a-uy

Tiraji – 3688
Buyurtma – 05Tapehrilish vaqti – 19:00
Tapehrilish – 19:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shoxko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:

(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5